

BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARS TASHKILLASHNI INNOVATSION USULLARI

Mamatkulova Muhabbat Kamoldinovna

Farg'onan viloyati Bag'dod tumani MMTBga qarashli 48-umumiyo'rta ta'limgaktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada, boshlang'ich ta'limgaktabi innovatsionlarni tafbiq etish yo'llari, boshlang'ich sinflarda foydalanish mumkin bo'lgan innovatsion texnologiyalarning didaktik tamoyillari, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish va boshlang'ich sinflarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida ma'lumot beriladi

Kalit so'zlar: interfaolmetodlar, innovatsiya, pedagogik texnologiya

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Маматкулова Мухаббат Камолдиновна

Багдадский район Ферганской области 48-е общее среднее образование при ММТБ учитель начальной школы

Аннотация: В данной статье представлена информация о способах внедрения инноваций в начальном образовании, дидактических принципах инновационных технологий, которые могут быть использованы в начальных классах, использовании интерактивных методов в ходе урока, а также о важности использования инновационных педагогических технологий. технологии в начальных классах дается

Ключевые слова: интерактивные методы, инновации, педагогические технологии.

INNOVATIVE METHODS OF LESSON ORGANIZATION IN PRIMARY CLASSES

Mamatkulova Muhabbat Kamoldinovna

Bagdad District, Fergana Region 48th general secondary education under MMTB elementary school teacher

Abstract: In this article, information about the ways of implementing innovations in primary education, the didactic principles of innovative technologies that can be used in primary classes, the use of interactive methods in the course of the lesson, and the importance of using innovative pedagogical technologies in primary classes is given

Key words: *interactive methods, innovation, pedagogical technology*

KIRISH

Jamiyatning ma`naviy salomatligini ta`minlashda ta`lim – tarbiya o`chog`i bo`lgan mактаб muhim rol o`ynaydi. Dunyo imoratlari ichida eng ulug`i mактаб bo`lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o`qituvchilik va murabbiylikdir. Har bir ustoz, har bir pedagog yosh avlodni ko`п asrlik milliy madaniyatimiz va tariximiz, shuningdek zamonaviy fan-texnika yutuqlari asosida tarbiyalash ishiga o`z hissasini qo`shishi, samarali mактаб poydevorini qurishi, mustahkamlashi lozim. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang`ich sinflarda o`qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta`lim jarayonigamohirona tadbiq eta olishi, ta`limning yangi-yangi yo`l va usullarini izlashi, ilg`or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham boshlang`ich sinf o`quvchilarini mustaqil fikrlashga o`rgatishda innovatsion ta`lim texnologiyasidan foydalanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyatga joriy etishga tayyorlash bugungi boshlang`ich ta`lim oldiga qo`yilgan muhim talablardan biridir. Chunki zamonaviy pedagogik texnologiyalar, birinchidan, o`quvchilarini bilim, ko`nikma va malakalarni oson va qiziqib o`rganishlari uchun imkoniyat yaratса, ikkinchidan, o`qituvchining ham professional o`sishiga, ham ma`naviy rivojlanishiga yordam beradi. Ta`limning bugungi vazifasi o`quvchilarini kun sayin oshib borayotgan axborot oqimidan oqilona foydalanishga o`rgatish, uzluksiz o`rganish uchun ma`qul muhit shartsharoit, yaratishdan iborat. Zero o`qituvchining o`zi ham doimiy ravishda o`z 409 ustida ishlashi, pedagogik mahoratni uzluksiz oshirib borishi, jahon va milliy pedagogik meros hamda ilm-fan yutuqlaridan ijodiy foydalangan holda ta`lim jarayonini takomillashtirib borishi lozim.

Innovatsion texnologiya - ta`lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo`llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta`lim jarayonida o`qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o`zgartirishlar kiritish bo`lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Boshlang`ich sinf darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil etish - bu o`quvchilarini faolligiga, erkin va mustaqil fiklashiga chorlaydi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg`ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo`llanilganda mustaqil ishlash ko`nikma va malakasi rivojlanadi.

Ta`lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetish, amaliyatda ta`lim muassasalarini innovatsion jarayonlarga qo`shilishini taqozo etmoqda, o`zini yaratish imkonи mavjud innovatsion maydonda ko`rish va eng muhimi aniq yangiliklarni o`zlashtirishdan iborat. Bu holat bugungi kunda o`ta dolzarbliги bilan muhimdir, chunki, ushbu jarayon (innovatsion jarayon) ta`lim muassasalarini yashash sharti (bevosita va ko`chma ma`noda ham), kelajak avlodlar va pedagoglar jamoasining aloqalarini ijtimoiy himoyalash sharti bo`lib ham xizmat qiladi. Hayot ta`lim muassasalari oldiga yangi, mumkin bo`lmagandek tuyulgan vazifalarni, ya`ni eskichasiga ishlab turib, aniq yangiliklarni ishlab chiqish va ularni amaliyatga joriy etishni oldimizga qo`ymoqda.

Barcha yangiliklarga o`ta ehtiyyotkorlik bilan yondashadigan, o`tmish boyliklarga, tajribalarga e`tiqod ruhida tarbiyalangan, stabillikni yoqtiradigan keksa avlodni,

shuningdek hech qanday o'zgarishlarni xohlamaydigan pedagoglarni ham tushunish mumkin. Bunday holatda "innovatsion jarayonlar orqasidan quvish" bugungi kun hayotimizning ajralmas qismi ekanligini ham tushunish zarur. Xohlaymizmi yoki yo'q bizning ta'lif muassasalari devorining orqasida bozor va bozor munosabatlari jarayoni ketayapti. Bu jarayon to'o'ridan-to'o'ri bizga tegishlidir, chunki ta'lif muassasalari o'rtasidagi raqobat tushunchasi ularni raqobat qobiliyati, ta'lif sifati, ijtimoiy buyurtmalar bularning hammasi turmushimizga kirib kelayapti.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Bugungi kunda maktab va oliy ta'lif tizimidagi an'anaviy va ommaviy ko'rinishdagi ta'lif va tarbiya jarayonlari o'rniga ta'lif muassasalari rivojlanishida o'ziga xos yangilik bo'lib innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda. Innovatsiya (in- "lik", novus- "yangi") yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni anglatadi. "Innovatsion ta'lif" deganda odatda o'quv jarayoniga yangi (foydali) elementlar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta'lif tizimida innovatsiya o'zgartirish bilan bevosita boo'liq. Bunday o'zgartirishlar ta'lif tizimining: - maqsadiga, mazmuniga, metod, texnologiyasiga, tashkil etish shakli va boshqaruv tizimiga; - pedagogik faoliyatdagagi o'ziga xoslik va o'quv-bilish jarayonini tashkil etishga; - ta'lif darajalarini nazorat qilish va baholash tizimiga; - o'quv-metodik ta'minotiga; - tarbiyaviy ishlar tizimiga; - o'quv reja va o'quv dasturlariga; - o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga boo'liq. Yangilik tarixiy aspektida nisbiylik ahamiyat kasb etadi. Yangilik aniq tarixiy xarakterga ega, ya'ni o'z vaqtidan oldin paydo bo'lishi mumkin, o'z vaqtida me'yor bo'lishi yoki eskirishi ham mumkin. Maktab yoki oliy tizimning rivojlanish jarayonida, ehtimol ta'lif tizimi butunicha: -absolyut yangiligi (o'xhashi, prototipning yo'qligi); - nisbatan yangiligi; - o'ziga xos, ixtirochiligi ko'rinishidagilar hisobga olinadi. Yangilik xillari (tiplar) maktab va oliy tizimda turlicha asoslarga ko'ra guruhlanadi: Birinchi klassifikatsiya (guruh) yangiliklarni kiritish, maktab va oliy tizimda sodir bo'ladigan pedagogik jarayonga aloqadorligi bilan asoslanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARXI

Ta'lif sohasi - mamlakatimizda birinchilardan bo'lib faol innovatsion harakatni boshladi. Ma'lum bosqichda XX asr oxirlarida bunday harakatlar yo'lga qo'yilgan edi. Masalan, A.G.Rivin va V.K.Dyachenko tomonidan o'qitishni jamoaviy o'qitish, D.B.Elkonin, V.V.Davbidov, L.V.Zankovlar tomonidan ilgari surilgan rivojlantiruvchi innovatsion ta'lif to'o'risidagi qarashlar o'z vaqtida ma'lum ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga boshqa innovatsion ta'lif texnologiyalari: dialektik o'qitish usullari (A.I.Goncharuk, V.L.Zarina), o'qitishning individual yo'nalishli usuli (A.A.Yarulov), "Ekologiya va dialektika" (L.V.Tarasov), evristik o'qitish (A.V.Xutorskoy) dialog madaniyati (V.S.Bibler, S.Yu.Kurbanov), loyihali o'z-o'zini refleksiya (G.P.Shedrovitskaya) va b.q.larni keltirish mumkin.

Yuqoridagi keltirilgan texnologiyalar o'qitishda o'zlashtirishni yuqori ko'tarish, o'quv jarayonida qiziqtirishni, o'quv materialini tushunishni yaxshilashni, funksional savodxonlikni shakllantirishni, loyihali savodxonlikni, nazariy tafakkurni, ekologik va iqtisodiy tafakkurni, kommunikativlikni, ijtimoiy faollikni, fuqarolik ongini, o'z-o'zini anglash va boshqa vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan edi.

Hozirda boshqa faoliyat sohalari, jumladan, ishlab chiqarish rivojlanishining innovatsion yo'liga o'tgach, ta'lim sohasi ularga faqat yetakchilarni tayyorlash funksiyasini bajardi. Lekin aslida esa boshqacha ko'rinish ko'zga tashlanadi. Ilgari jamiyat uchun uncha ko'p bo'lмаган va mustaqil shakllangan innovatorlar yetarli edi. Yuqorida sanab o'tilgan ta'lim texnologiyalari uchun innovatorlar faqat pedagoglar edi va ularning innovatsiyalari o'quvchilarda zaruriy sifatlarni shakllanishiga yo'naltirilgan bo'lib, innovatsion tafakkur va qobiliyatni innovatsion faoliyatiga yo'naltirishga e'tibor qaratilmagan. Bildirilgan fikrlar "innovatsion ta'lim texnologiyalari" va "innovatsion ta'lim" tushunchalarini quyidagi tarzda ajratib, alohida qarab chiqishni talab etadi:

- innovatsion ta'lim texnologiyalari va dasturlari ;
- bu barcha ta'lim texnologiyalari, yaratuvchi va ularni rivojlantiruvchi pedagog innovatsion faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Bir qator rivojlangan mamlakatlar ilmiy laboratoriylarida (IMEN) IMENpedagogikaga "bilimlarni ixtiro qilish" deb nomlangan yangi metod yaratildi. IMENning integratsiya asoslari eng ko'p tarqalgan barcha innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan birgalikda ishlab chiqildi. Buning qo'shimcha samarasi - turli pedagogik texnologiyalarni amaliy dialektika tilida yozib chiqish imkonini beradi. Dunyodagi global o'zgarishlar jarayoni, mamlakatimizdagi iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sohalardagi o'zgarishlar, ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassislarga jiddiy e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyiligi konsepsiyasini farqlaydilar. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi o'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.
2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.
3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.
4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiq etish bosqichi.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi. Yangilik kiritishning tizimli konsepsiysi mualliflari innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

- pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemanomlik qonuni;
- nihoyat amalga oshish qonuni;
- qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni;
- pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni.

Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilari innovatsiya jarayonining ikki tipini farqlaydilar:

1. Innovatsiyaning birinchi tipi stixiyali o'tadi, ya'ni innovatsion jarayonda unga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, uni amalga oshirishning barcha shart sharoitlari tizimi, usullari va yo'llariga ongli munosabat bo'lmaydi.

2. Innovatsiyaning ikkinchi tipi ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsulidir.

Pedagogik yangilik dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiriladi. Keyingi bosqichda - sinalgandan va ob'ektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi. V.A.Slastenin o'tkazgan tadqiqotlar o'qituvchining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Ular quyidagi tavsiflardan iborat:

- mo'ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;
- kelgusida qayta ishlash maqsadida yangilikning o'zidagi va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklarni aniqlash;
- yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorlarini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va pishiqlik darajasini aniqlash;
- yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;
- yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyatiga baho berish.

O'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho

berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi. Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi. O' qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

- yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;
- yangicha harakat qila olishga o'rgatish.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim komponentlaridan biri yuksak professionalizm - akmeologiya, yunoncha eng oliy nuqta, eng gullagan davr, yuksak

professionalizm ma'nolarini beradi. Kasbiy intelletual yetuklik va mahoratni bildiradi. Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- iste'dod nishonalari;
- uquvlilik;
- qobiliyat;
- iste'dod;
- oila tarbiyasi sharoiti;
- o'quv yurti;
- o'z xatti-harakati.

Hozirgi sharoitda innovatsion faollik oliy ta'limning ham mazmun hamda tashkiliy tuzilmaviy jihatdan qayta ishlab chiqish bilan bevosita boo'liq. Bu jarayonlarning asosi bo'lib oxirgi uch, o'n yillikda pedagogik ta'lim nazariyasini tezkor ishlab chiqilishi bo'ldi. (A.A.Abdulina, Ye.V.Bondarevskaya, V.I.Zagvyazinskiy, V.S.Ilin, N.M.Kan-Kalik, V.A.Slastenin va b.q) Pedagogik ta'lim rivojlanishining zamonaviy innovatsion yo'nalishlarini ichida xususiy innovatsion nazariyani shaxsiy (xususiy) yo'nalishli ta'lim sohasidagi ishlanmalarni, ta'limni tashkiliy-tuzilmaviy modelini, ta'limni ko'p darajali

tizimini rivojlantirishni ajratib ko'rsatish mumkin. Oxirgi o'n yillikda pedagogik innovatikani nazariy asoslari ishlab chiqilyapti. Ayniqsa, K.Anglovskiy M.V. Klarin, V.Ya.Lyaudis, M.N.Pota^nik, S.D.Polyakov, T.I.Shamova, O.T.Xomeriki, N.R.Yusupbekova, V.A.Slastenin va b.q.larning ishlarida pedagogik professionalizmni rivojlantirishning o'ziga xos tomonlarini aniqlash va oliy ta'limda o'qitish jarayonida bo'lg'usi o'qituvchining innovatsion imkoniyatlarini rivojlantirish olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlarning bahs mavzusi bo'lib qolmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda dars davomida kelib chiqqan muammolarni inovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali oson yechimini topish mumkin. O'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarni darsdagi faoliyatini aniq bir maqsadga yo`naltirib, har bir darsga puxta tayyorgarlik ko`rgan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borishi va o'quvchilarni ko`proq mustaqil fikrlashga, fikrlarini erkin bayon etishga o'rgatib borishi lozim. O'quvchilarni har bir javobini o`z vaqtida rag`batlantirib borsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Dars davomida o'quvchini o'r ganilgan mavzu yuzasidan fikr bildirishiga undashi, taklif va mulohazalarini, istedodini namoyish qilishga bo`lganurinishlarini qo'llab - quvvatlashi, buning uchun sharoit va imkoniyat yaratishga harakat qilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdixadirovna, U. D. (2022). The role of digital pedagogy in the development of student oral and written speech in primary school mother tongue lessonst.
2. Abdikhadirovna, U. D. (2022). Possibilities of improving the methodology of preparing primary class students for the international assessment program based on digital technologies (example of pirls). Innovation in the modern education system, 3(25), 159-163
3. Mavlonova R.A., To'raeva O.T., Xoliqberdiev K.M. -«Pedagogika» T., «O'qituvchi » - 2008-y.
4. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. "Pedagogika" - T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010-y.
5. Yo'ldoshev J.G', S.Hasanov, M.SHirinov. "Magistrantlarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash. O'quv metodik qo'llanma. Fan va texnologiyalar. T: 2011-y.
6. Juraev R.H., Tolipov U.Q., SHaripov SH.S., "Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'nalitirishning ilmiy-pedagogik asoslari" T.: Fan nashiryoti, 2004- yil.
7. www. Ziyonet. Uz
8. ASADOV, M., & JAMOLOVA, S. (2022, February). INTERPRETATION OF THE IMAGE OF LOVE IN THE POETRY OF ALISHER NAVOI. In Conference Zone (pp. 331-333).
9. Abdurakhimova, D. K. (2014). PREREQUISITES FOR THE TRANSITION OF TRADITIONAL BANKS TO DIGITAL BANKING. The Way of Science, 23